

Sport – irodani toblaydi

Sport – irodani toblaydi

Mutaxassislar ta'kidlashicha sport bilan muntazam shug'ullanish insonni jismonan chiniqtiribgina qolmay, ruhiy jihatdan tetiklashtiradi, irodasini toblaydi. Ayniqsa, ta'lim bilan bog'liq sohalarda talabalar uchun sportning har qanday turining ahamiyati beqiyos ekanini "TIQXMMI" MTU Iqtisodiyot fakultetida ta'lim oluvchi har bir talaba chuqur his etmoqda. Universitetda talabalarning mini futbol, stol tennisi, basketbol, voleybol, shashka-shaxmat bilan muntazam shug'ullanishi bevosita Universitet rektorining, "Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi" ning, shuningdek, "Jismoniy tarbiya" kafedrasining e'tibor markazida. Buning uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.





Joriy yilning 18 aprel kuni Universitet sport majmuasida Iqtisodiyot fakultetining 200 nafardan ortiq 1-2-3-bosqich talaba-yoshlari “Rektor kubogi”ga saralash musobaqalariga qatnashish uchun yig’ildi. Iqtisodiyot fakulteti dekani R.Xakimov sport musobaqalarini ochish uchun so’zga chiqqanida shunday fikrlarni bildirdi: “...Inson umri davomida sog’lom bo’lishni, uzoq yashashni, hayoti davomida yaxshi natijalarga erishishni maqsad qiladi, buning uchun sport bilan muntazam shug’ullanishi kerak! Shunda uning fikrlari teran, hayotning har qanday sinovlariga tayyor, o’zini qanday sharoitda bo’lsa ham ruhan tetik his qiladi!...“Rektor kubogi”ga saralash musobaqalari “Jismoniy tarbiya” kafedrasi mudiri M.Norqobilov va kafedra o’qituvchisi A.Xodjanovlarning hakamligi ostida adolatli, murosalsiz va qizg’in tarzda bo’lib o’tdi.





Sport turlari bo'yicha g'olib jamoalar quyidagicha aniqlandi:

Mini futbol bo'yicha

1-o'rin 304-guruh jamoasi

2-o'rin 108-guruh jamoasi

3-o'rin 204-guruh jamoasi

Basketbol bo'yicha

1-o'rin 111-guruh jamoasi

2-o'rin 103a-guruh jamoasi

3-o'rin 108-guruh jamoasi

Shaxmat bo'yicha

1-o'rin 108-guruh talabasi To'liboyev Orifjon

2-o'rin 109a-guruh talabasi Umrzoqov Iqbolbek

3-o'rin 105-guruh talabasi Hamroyev Farrux

Voleybol bo'yicha

1-o'rin 1-kurslar terma jamoasi

2-o'rin 2-kurslar terma jamoasi

3-o'rin 3-kurslar terma jamoasi

Musobaqa g'oliblarini tabriklaymiz, "Rektor kubogi"ni qo'lga kiritishga omad tilaymiz.

Iqtisodiyot fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev

Universitet matbuot xizmati